

TESHABOYEVA XURSHIDAXON IXTIYORJON QIZI

FarDU o‘zbek tiliva adabiyot yo‘nalishi

22.90 – guruh talabasi

“G‘AROYIB US-SIG‘AR“ DOSTONINIG G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodiga bo‘lgan e‘tibor , xususan, “Xazoyin ul-maoniy” devoniga kiritilgan “G‘aroyib us-sig‘ar” asarini o‘rganish bo‘yicha ish olib boriladi. Navoiy lirikasini o‘rganish XX asrning 30-yillaridan boshlangan bo‘lsa, u asosan ikki yo‘nalishda olib borildi. Birinchi yo‘nalish shoir asarlarini tekstologik jihatdan tekshirishni tashkil qildi. Bunda adabiyotshunos Hamid Sulaymon tomonidan "Xazoyin ul-maoniy"ning akademik nashri va ilmiy tanqidiy matni tayyorlanishi bilan bog‘liq ishlar amalga oshirildi. Lirikaga oid nazariy xarakterdagi ilk tadqiqotlarni akademik Oybek, M. Shayxzoda, A. Hayitmetovning ilmiy asarlarida kuzatish mumkin. Umuman, Navoiy lirikasini badiiyat ilmining qonuniyatlari nuqta‘i nazaridan o‘rganish, munosabat bildirish shoir hayotligidayoq boshlangan edi. Jomiy, Lutfiy, Bobur, Sayid Hasan Ardasher. Pahlavon Muhammad kabi zamondoshlari unga betaraf va xolis baholarini berishgan.

Kalit so‘zlar : Talmeh, g‘azal , qadah, jom , Yaqub(a.s) ,qismat, shayx , vali, oshiqlik, fitrat.

Kirish. Uzoq tarixiy o‘tmishga ega bo‘lgan o‘zbek klassik adabiyoti yetishtirgan siymolar orasida Alisher Navoiy singari ulug‘ va mukammal ikkinchi bir shaxsiyatni uchratish qiyin. Uning har taraflama keng, ijtimoiy, siyosiy, adabiy faoliyati va ko‘p qirrali yuksak badiiy ijodiyoti o‘zbek xalqi tarixida, uning yaratgan madaniyati va adabiyoti sahifasida eng porloq va sharaflig‘ o‘ringa egadir.

Bu ulug‘ mutafakkir, dohiy san‘atkor o‘zining o‘lmas asarlarini bundan besh yuz yil ilgari yaratdi. Uning hayoti va faoliyati XV asrning eng kuchli savdo, hunarmandchilik va madaniy markazi hisoblangan Hirotda, temuriylar davlatining so‘nggi davridagi tarixiy sharoit ichida o‘tdi, uning fikr, qarashlari, ijodiyotini xarakterlagan yuqori, progressiv xislatlar shu sharoit bilan qattiq bog‘langan holda rivojlandi. Navoiy lirikasining g‘oyaviy-badiiy qimmatini, shoir san‘atkorligining o‘ziga xos qirralari uning badiiy tasvir vositalari doirasi, shuningdek, ularni qo‘llash usullarida yanada aniq namoyon bo‘ladi. 16 ta lirik janrdan tashkil topgan "Xazoyin ul-maoniy" devonida ma'naviy, lafziy va mushtarak san'atlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning har biri xilma-xil yo'nalishlarda ishlatilgan. Shulardan mutafakkirning ma'naviy san'atlar qo'llanilgan qator g'azallari, ruboiylari, qit'a va masnaviylari borki, ular navoiyshunos olimlar tomonidan tahlilga tortilgan. Shunday bo'lsa-da, ularni yetarlicha deb bo'lmaydi. Shoir she'riyati badiyatini chuqur va atroflicha, tizimli tadqiq etish navoiyshunoslik oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Muhokama va natijalar. Buyuk shoir o‘zining "G‘aroyib us-sig‘ar"dagi ilk g‘azalida may, jom, mayi vahdat, zarf, singon safol kabi bir qator timsollarni qo‘llagan. Taniqli olim N. Komilovga ko‘ra “ushbu g‘azal o‘zidan keyin keladigan g‘azallar uchun ma‘lum ma‘noda dasturiy xususiyatga ega". Ya‘ni "mazkur g‘azal ma‘nolarini to‘g‘ri tushungan odam Navoiy devonlaridagi boshqa g‘azallarni ham anglab yetishga kalit topadi". Chunki unda ulug‘ shoir dunyoqarashining asosiy yo‘nalishi aks etgan va u keyingi g‘azallarda davom ettirilgan. Olimning izoxlashicha, "G‘azalda olamning ilohiy mohiyati va buni anglagan inson zavqi shavki, kalb sururi ifodalangan". Darhaqiqat, Navoiy ijodiyotida qo‘llangan may obrazi, uning mazmun-mohiyati ham, eng avvalo, mazkur g‘azalda to‘g‘ri va aniq ochib berilgan.

Sen gumon qilg'ondin o'zga jomu may mavjud erur,

Bilmayin nafy etma mayxona ahlin, zohido.

Mumtoz adabiyotda may, boda, sharob, jom, kadah hayotiy va ilohiy haqiqatlarni oshkor etuvchi o'ziga xos tisollardir. Shuningdek, ular ishq va oshiqlikning turli darajalarini ham yuzaga chiqaradi. Masalan, may "ishqning g'alaboti", muhabbat shavqi ila "masti musrag'raq" bo'lishni anglatadi. Qadah esa ishq quyoshi porlagan toza, beg'ubor kalb timsoli. Shu sababli, quyidagi baytda lirik qahramon oshiq ishq kadahidan ilohiy sharob ichish o'zi uchun qismati azal ekanini aytadi:

Qadah ichmak yozuq deb asru mardud etmagil, ey shayx,

Bu qism ersa azaldin, bejihatdur bizni yozg'urmoq.

Tasavvufdagi vahdat yoki tavhid ta'limoti Qur'oni karimdagi "Alastu bi-robikum" "Men sizning robbingiz emasmanmi", so'roviga asoslanishi ma'lum. Ya'ni "A'rof" surasida keltirilishicha, Tangrining "men sizning Rabbingiz emasmanmi?" degan savoliga, ruhlari "Rabbimizsan", deya javob qaytarishgan. Vahdat ul-vujud ta'limotiga ko'ra, inson va umuman bashariyatning butun xayoti ana o'sha ilohiy axdni bajo aylash va "azaliy vatan"ga qaytish xodisidan iborat. Professor I. Haqqulovga ko'ra, vujudning oxirgi bosqichi "kamol va nihoya" ham mana shudir. Mumtoz adabiyotda "alast xamri", "alast bazmi" kabi poetik birikmalar ham ko'plab uchraydi. Bu orqali inson yaratilmasidan avval Olloh bilan ularning ruhlari orasida kechgan ana o'sha ahdlashuvga ishora qilinadi. Alisher Navoiy she'riyatida oshiqlik tarixining ilk asosi, ma'naviy negizi, eng avvalo, mana shu bog'liqdir. Masalan: alast bazmi, alast mayi, alast jomi bilan bevosita

Meni usruk ko'rubon jomim ushutma, ey shayx,

Kim, bu yanglig' meni mast etgan erur jomi alast.

Mumtoz adabiyotda ishq borliqning asosi, tiriklik mohiyati, insoniy kamolot yo'lidir. „G'aroyib us-sig'ar" devonida o'rin olgan 144, 272 va 462-g'azallarda Yaqub (a.s) va uning o'gli Yusuf (a.s) bilan bog'liq hikoyatga ishora qilinadi. Diniy manbalardan bilamizki, Yusuf (a.s) ni akalari hasad o'tidan cho'lda adashtirib, uning liboslarini Yaqub (a.s) ga keltirib berishadi va ukalarini bo'ri yeb ketganligini aytib yolg'on gapirishadi. O'g'lidan judolikdan tinimsiz ko'z yosh to'kkan Ya'qub (a.s)ning ko'zlari ko'rmay qoladi. Qachonki, Ka'nondan kelayotgan karvonlar safida Yusuf (a.s)ning xabari keltirilgandagina uning ko'zlariga nur qaytadi. Yuqorida keltirilgan g'azallarda ana shu tasvirga ishora seziladi. Birinchi g'azalda shunday tasvirlanadi:

Noma qosid ilgidin, qosid habibim ollidin,

Mujdayi jon eldinu, el mohi Kanondin kelur

Unga atalgan noma habibining oldidan keltirilgan, bu jon mujdasi eldan, el esa Ka'nondan kelayotganligi aytiladi. Kanondan kelayotgan el olib kelayotgan xabar, oshiq taniga jon bag'ishlaydi (Xuddi Ya'qub (a.s)ning ko'zlariga nur qaytgandek).

Navoiy g'azallarida nafaqat talmeh san'ati, balki "G'aroyib us-sig'ar"da ishq va oshiqlik masalasi ko'pincha qismat yoki taqdiri azal bilan bog'lab talqin qilingan. Quyidagi baytda ham

lirik qahramon o‘ziga ishq o‘tini o‘chirishga jur‘at topishini, chora axtarishini buyurgan "shayx"ga murojaat qilib, mana nima deydi:

O‘charga ishq o‘ti chora qil deding, ey shayx,

Bo‘lurmu qismatim o‘lg‘on balog‘a chora qilib?

Bu o‘rinda "shayx" - haqiqiy muhabbatdan mahrum, uning mazmun- mohiyatini to‘la anglashga qodir bo‘lmagan soxtakor obraz sifatida gavdalantirilgan. Lirik qahramon oshiq esa "shayx"ning tamoman aksi: qalb hurriyati, ruh halovati, tiynatu fitrat sofligini faqatgina ishqdan topa olgan benuqson timsol. Oshqlikda ranju mashaqqat halovatga, g‘am- hasrat - shodlikka, g‘urbatu g‘ariblik shohlikka teppa-teng. Taqdir hukmi bo‘lgan "balog‘a" tadbir topish ishq bandasi lirik qahramonning imkonidan xorij bir ishdir. Ma‘rifiy adabiyotda balo Haqning qulini tanishi. Solik o‘zida mavjud bo‘lgan yaxshi amallarga sohib va sodiq bo‘lishi uchun unga yuborilgan sinov, azobu ranj demak. Balo kulning Haqqa yaqinligini ham bildiradi. Hadisda aytilishicha, "Eng shiddatli balolarga duchor bo‘lganlar payg‘ambarlardir, so‘ngra valilar" . Yuqoridagi baytda balo so‘zi mana shunday ma‘nolarni ham ifoda etadi.

Xulasa: Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy g‘azallarida qo‘llanilgan Talmeh san‘ati o‘quvchi ko‘z o‘ngida voqealar silsilasini birma-bir gavdalantirish, tasvirning qabariqligini ta‘minlash, g‘azalxonni baytda tasvirlangan holat va muhitga olib kirish kabi muhim vazifalarni ifoda etganligi bilan ham ahamiyatlidir. Mutafakkir ijodida qo‘llanilgan mazkur badiiy san‘at g‘azalning badiiy qimmatini oshirish bilan bir qatorda, o‘quvchiga estetik zavq bag‘ishlash, uni tafakkur qilishga, baytlar zamiridagi yashirin ma‘noni ilg‘ashga undaydi. Qolaversa, bunday o‘rinlarda ijodkor badiiy dahosi ham kashf etila boradi. Navoiy ijodiyoti ana shunday keng ko‘lami, ijtimoiy-siyosiy falsafasi, ma‘naviy-ma‘rifiy g‘oyalari, bashariyat kamolotiga xizmat qiluvchi fikrlari bilan barcha davrlarda va barcha xalqlarda birday qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Navoiy. Xamsa.Layli va Majnun. Toshkent: Yangi asr avlodi. 2021.
2. Хайитметов А. Навоий даҳоси. – Тошкент: Фафур Ғулом нашриёти, 1970.
3. SHarafiddinov O. Alisher Navoiy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyoti nashriyoti.1971.
4. Imomova O, Mamarasulova B. Badiiy asarlarda ishq-muhabbat talqini.
5. Alisher Navoiy . Xazoyin ul-maoniy fotihasi.
6. Haqqulov I. Tasavvuf va she‘riyat. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
7. Komilov N. Tasavvuf. – T.: Movarounnahr-O‘zbekiston NMIU, 2009
8. Qayumov A.. Ishq vodiysi chechaklari. –T.: Adabiyot va san‘at, 1985
9. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – T.: Adabiyot va san‘at, 1979
10. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. – B.: "Buxoro" nashriyoti, 1994